

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI**

**JIZZAX VILOYATINING  
STATISTIK AXBOROTNOMASI**

**2023-YIL  
YANVAR-SENTABR**

**Jizzax – 2023-y.**

## SO‘Z BOSHI

Jizzax viloyatining statistik axborotnomasi Jizzax viloyatining ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi Jizzax viloyati statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2023-yil yanvar-sentabr oylari yakunlari bo‘yicha Jizzax viloyatining asosiy statistik ko‘rsatkichlari chop etilgan.

Ushbu nashrda 2017 yilning I choragidan boshlab, hisobot davri uchun statistik ko‘rsatkichlar Yevropa hamjamiyatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT–2) bo‘yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud iqtisodiy faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT–2 talablari qo‘llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog‘-ko‘n sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, suv ta‘minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B,C,D,E,F seksiyalari). Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini, iqtisodiyot tarmog‘i sifatida talqin qilishdagi tafovutni bartaraf etish maqsadida, yangilangan tasniflagichda qishloq xo‘jaligi faqatgina dexqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga olmay, balki o‘rmon va baliq xo‘jaliklari mahsulotlarini ham o‘z ichiga oladi (Seksiya A “Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi”).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi iqtisodiy faoliyat turlarining ulush ko‘rsatkichlari yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya‘ni, YAHM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar chiqarib tashlangan).

Nashr 13 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo‘lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faollik, Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi statistika ma‘lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Statistik axborotnomada sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport, ichki va tashqi savdo, ulgurji va chakana savdo, mehnat bozori va demografik holat to‘g‘risidagi tahliliy ma‘lumotlar keng yoritilgan.

Dastlabki hisoblarga asosan kelgusida aniqlik kiritilishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar keltirilmoqda.

**Qisqartma va shartli belgilar**

YAHM	–	yalpi hududiy mahsulot	l	–	litr
foiz	–	%	0,0	–	katta bo‘lmagan miqdor
mlrd.	–	milliard	m.	–	marta
mln.	–	million	–	–	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln.AQSH doll.	–	million AQSH dollari	Ga	–	gektar
kv	–	kvadrat	t	–	tonna
km	–	kilometr	1), 2), 3).....	–	izohning mavjudligi
m	–	metr			


## MUNDARIJA

Nomi	bet.
<b>ASOSIY IQTISODIY KO‘RSATKICHLAR</b>	<b>5</b>
<b>I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT</b>	<b>6–14</b>
<b>II. SANOAT</b>	<b>15–26</b>
<b>III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI</b>	<b>27–44</b>
<b>IV. INVESTITSIYA VA QURILISH ISHLARI</b>	<b>45–56</b>
<b>V. XIZMATLAR</b>	<b>57–72</b>
<b>VI. TRANSPORT</b>	<b>73–76</b>
<b>VII. ISTE‘MOL BOZORI</b>	<b>77–86</b>
<b>VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT</b>	<b>87–101</b>
<b>IX. KICHIK TADBIRKORLIK</b>	<b>102–105</b>
<b>X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI</b>	<b>106–116</b>
<b>XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI</b>	<b>117–128</b>
<b>XII. DEMOGRAFIK HOLAT</b>	<b>129–138</b>
<b>XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI</b>	<b>139–148</b>

Jizzax viloyatida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar  
2023-yil yanvar-sentabr

<i>Ko'rsatkichlarnomi</i>	<i>Mld. so'm</i>	<i>2022-yil yanvar-sentabriga nisbatan foiz hisobida</i>
 Yalpi hududiy mahsulot	23 145,3	104,7
 Sanoat mahsuloti	14 271,7	107,3
 Iste'mol tovarlari	8 428,0	188,7
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) lari	18 904,5	105,2
 Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	10 401,1	120,8
 Qurilish ishlari	2 845,5	105,5
 Yuk aylanmasi (mln. tn-km)	1 095,5	131,3
 Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi.-km)	1 888,5	101,3
 Chakana savdo tovar aylanmasi	5 732,7	104,7
 Xizmatlar, jami	7 072,1	107,7
 Tashqi savdo aylanmasi, (mln. AQSH doll.)	1 028,9	2,0 m.
 Eksport	131,5	88,7
 Import	897,4	2,5 m.
 Saldo (+,-)	-765,9	x

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT





Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi joriy narxlarda 23 145,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. YaHMning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,7 foizni tashkil etdi.



2021-2023 yillarning yanvar-sentabr oylarida YaHMning deflyator indeksi

2021-2023 yillarning yanvar-sentabr oylarida YaHMning o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan foizda)




*Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.*




2021-2023 yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o'rishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)


**YaHM**




**Qurilish**




**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi**




**Xizmatlar**



**Sanoat**



**Maxsulotlarga sof soliqlar**



**2023-yilning yanvar-sentabr oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YaHM ishlab chiqarishda tarmoqlarning ulushi, foizda**

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 105,1 foiz, (YaHM tarkibidagi ulushi 48,3 foiz), sanoat – 107,3 foiz (16,5 foiz), qurilish – 105,0 foiz (5,5 foiz), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 105,4 foiz (5,8 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 107,5 foiz (3,6 foiz) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 101,0 foiz (20,3 foiz)ni tashkil qildi.




**2023-yilning yanvar-sentabr oyida aholi jon boshiga  
hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari**



*Aholi jon boshiga  
hisoblangan  
YaHM, ming so'm*



*Aholi jon boshiga  
hisoblangan YaHM,  
o'sish sur'ati*




Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 15 557,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,4 foizga o'sdi.



2023 yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

Ko'rsatkichlar nomi	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2022yil	2023yil	
<b>I. YaHM</b>	<b>18 978,5</b>	<b>23 145,3</b>	<b>104,7</b>
<i>shu jumladan:</i>			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	18 508,2	22 432,5	104,6
 Mahsulotlarga sof soliqlar	470,3	712,8	110,1
<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>18 508,2</b>	<b>22 432,5</b>	<b>104,6</b>
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	9 272,4	10 828,6	105,1
<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>3 526,0</b>	<b>4 945,3</b>	<b>106,6</b>
 sanoat	2 418,1	3 712,4	107,3
 qurilish	1 107,9	1 232,9	105,0
<b>Xizmatlar</b>	<b>5 709,8</b>	<b>6 658,6</b>	<b>102,6</b>
 savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 099,3	1 294,6	105,4
 tashish va saqlash, axborot va aloqa	684,6	798,4	107,5
 boshqa xizmat tarmoqlari	3 925,9	4 565,6	101,0

Iqtisodiy o'sish sur'ati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir.



2023 yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


	<i>Ko'rsatkichlar nomi</i>	2022 yil	2023 yil
	<b>I. YaHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<i>shujumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,5	96,9
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2,5	3,1
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	50,1	48,3
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>19,1</b>	<b>22,0</b>
	sanoat	13,1	16,5
	qurilish	6,0	5,5
	<b>Xizmatlar</b>	<b>30,8</b>	<b>29,7</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,9	5,8
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,7	3,6
	boshqa xizmat tarmoqlari	21,2	20,3

2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,9 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,1 foizini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining YaHMning tarmoqlar boʻyicha tarkibidagi ulushi 48,3 foizni, sanoat tarmogʻi 16,5 foizni, qurilish 5,5 foizni va xizmatlar sohasi 29,7 foizni tashkil qildi.



**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar boʻyicha tarkibi**  
yanvar-sentabr holatiga (jamiga nisbatan foizda)








● Yalpi qoʻshilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar



2022-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha muflaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



■ 2022-yil


■ 2023-yil

2023- yilning yanvar-sentabrida YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 105,1 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 48,3 %), sanoatda – 107,3 % (16,5 %), qurilishda – 105,0 % (5,5 %), xizmatlar sohasida – 102,6 % ni (29,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 105,4 % (5,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 107,5 % (3,6 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,0 % dan (20,3 %) iborat bo'ldi.






2022-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2023-yilning yanvar-sentabrida YaHM deflyatori indeksi 2022- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 116,4 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 143,1 % va xizmatlar sohasida – 113,6 % qayd etildi.




Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan foizda)



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi 2023-yil yanvar – sentabr oylarida – 5,8 foizni (2022 yil yanvar – sentabrda – 5,9 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa 3,6 foizni (3,7 foiz), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 20,3 foizni (21,2 foiz) tashkil etdi.



**2022-2023- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YaAHMdagi ulushi**

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 16 638,9 mlrd.so'm (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 14 609,5 mlrd.so'm)ni tashkil qildi. YaAHMdagi ulushi 74,2 % (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida – 78,9 %)ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning YaAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

